VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Barchamizga ma’lumki, Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirilmoqda.

Bugungi kunda ushbu borada qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ma’qullanib, ushbu chora-tadbirlarda tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib xayotga tadbiq qilinmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va jamiyatimizda ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan o‘z faoliyatlarini mustaqil boshlashiga va biznesini rivojlantirishiga muhim poydevor bo‘ladi.

Bu o‘z navbatida, tadbirkorlarning va mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalarni yanada ko‘payishiga va ayni damda qo‘shimcha ish o‘rinlarini vujudga kelishiga, fuqarolarning turmush darajasini yanada oshirishiga xizmat qiladi.

Izoh tariqasida:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 dekabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-sonli qaroriga muvofiq tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan taqdim etilgan bildirishnomaga asosan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra 2020 yilning 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 19605 taga etdi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 24,3 % oshgan va faoliyat ko‘rsatayotganlari soni esa 18614 tani tashkil qildi bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3777 taga yoki 25,4 % ga oshgan.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,2 %), Urganch tumani (11,0 %), Xiva shahri (8,8 %) , Xiva tumani (8,4 %), hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

(2020 yilning 1 yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**19605**	**100,0**	**18614**	**100,0**
Urganch sh.	4735	24,2	4375	23,5
Xiva sh.	1723	8,8	1645	8,8
tumanlar:				
Bog‘ot	1016	5,2	968	5,2
Gurlan	1201	6,1	1173	6,3
Qo‘shko‘pir	1222	6,2	1169	6,3
Urganch	2161	11,0	2049	11,0
Xazorasp	1431	7,3	1387	7,5
Xonqa	1512	7,7	1489	8,0
Xiva	1646	8,4	1505	8,1
Shovot	998	5,1	940	5,0
Yangiariq	1148	5,9	1116	6,0
Yangibozor	812	4,1	798	4,3

Ma’lumot tariqasida:

Oxirgi 5 yillikka e’tibor beradigan bo‘lsak, viloyatimizda2014 yillarda davlat ro‘yxatidan o‘tgan tadbirkorlik sub’ektlar soni 10867 tani (fermer va dexqon xo‘jaliklarsiz)tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kun holatiga 14094 mingta bo‘lib 3227 taga ko‘payganini kuzatish mumkin.

Ro‘yxatdan o‘tgan sub’ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 26,7 %), sanoat (16,4 %), qurilish (9,4 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (8,8 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2020 yilning 1 yanvar holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Jami	**19605**	**100,0**	**18614**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	1734	8,8	1643	8,8
sanoat	3222	16,4	3058	16,4
qurilish	1847	9,4	1742	9,4
savdo	5243	26,7	5001	26,9
tashish va saqlash	706	3,6	668	3,6
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1297	6,6	1216	6,5
axborot va aloqa	256	1,3	238	1,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	436	2,2	426	2,3
boshqa turlari	4864	25,0	4622	24,8

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlarning ulushi 94,9 % ni, shu bilan birga faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,1 % ni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, %



2020 yil 1 yanvar holatiga 15545 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4918 ta, oilaviy korxonalar – 2464 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar –7900 va 263 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Misol tariqasida:

2015-2020 yil shu davr mobaynida faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlik sub`eektlari soni (fermer va dehqon xo`jaliklarsiz) 10140 dan 15545 taga yoki 53,3 % ga oshgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha asosiy qismi mas’uliyati cheklangan jamiyatlari xissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar yildan yilga o‘sib bormoqda va bu ma’lumotlarni statistik raqamlarda kuzatish mumkin.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 4843 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko‘proq. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (931 ta), Urganch tumani (645 ta), Xiva shahri (424 ta) va Xazorasp tumani (382 ta), hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa Yangiariq (251 ta), Yangibozor (252 ta) va Bog‘ot (283 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning katta ulushi savdoda 35,4 %, sanoatda 19,1 %,o‘rmon va baliq xo‘jaligida 13,0 % va yashash va ovqatlanish hizmatlarida8,1 % ni tashkil etadi.

Ma’lumot tariqasida:

Viloyatimizda yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub’ektlar soni (fermer va dexqon xo‘jaliklarsiz) 2015 yilda 1396 ta, 2016 yilda 1561 ta, 2017 yilda 1695 ta, 2018 yilda 2299 ta va bugungi kun holatiga 4843 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



2020 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni 15453 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30,8 % ga oshgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi, ya’ni 3682 tasi (jami sub’ektlarning 23,8 %) Urganch shahriga, 1773 tasi (11,5 %) Urganch tumani , 1513 tasi (9,8 %) Xiva shahri hamda 1295 tasi (8,4 %) Xiva tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 628 ta (4,1 %) Yangibozor, 705 tasi (4,5 %) Shovot, 738 tasi (4,7 %) Bog‘ot, 921 tasi (5,9 %) Yangiariq tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2019 yil 1 yanvar holatiga		*2020 yil 1 yanvar holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**11815**	**100,0**	**15453**	**100,0**
Urganch sh.	2909	24,7	3682	23,6
Xiva sh.	1245	10,5	1513	9,8
tumanlar:				
Bog‘ot	537	4,5	738	4,8
Gurlan	648	5,5	953	6,2
Qo‘shko‘pir	662	5,6	929	6,0
Urganch	1271	10,8	1773	11,5
Xazorasp	789	6,7	1078	7,0
Xonqa	915	7,7	1238	8,0
Xiva	1214	10,3	1295	8,4
Shovot	453	3,8	705	4,6
Yangiariq	762	6,4	921	6,0
Yangibozor	410	3,5	628	4,1

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 15453 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlarining 4975 tasi (32,2 %) – savdoda, 3031 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1731 tasi (11,2 %) - qurilishda, 1621 tasi (10,5 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida, 1202 tasi (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 662 tasi (4,3 %) - tashish va saqlashda, 342 tasi (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 220 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1669 tasi (10,8%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. SHuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2020 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 140 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 97,2 % ga o‘sgan. SHuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 85 tasi qo‘shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch shahar 35 ta (25,0 %), Urganch 19 ta (13,5 %) va Xiva 11 ta (7,9%) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Yangiariq 6 ta (4,3 %) va Qo‘shko‘pir6 ta (4,3 %), tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardoshlik muhitini yaratish maqsadida chet ellik sarmoyadorlarga yurtimiz bozoriga kirib kelishlari o‘z faoliyatlarini olib borishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar yildan yilga soni kengayib borayotganligini statistik raqamlarda o‘z aksini topgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi

(2020 yilning 1 yanvar holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**140**	**100,0**
Urganch sh.	35	25,0
Xiva sh.	11	7,9
tumanlar:		
Bog‘ot	9	6,4
Gurlan	10	7,1
Qo‘shko‘pir	6	4,3
Urganch	19	13,5
Xazorasp	7	5,0
Xonqa	8	5,7
Xiva	11	7,9
Shovot	11	7,9
Yangiariq	6	4,3
Yangibozor	7	5,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan 140 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 59 tasi (42,1 %) sanoat, 24 tasi (17,1 %) savdo, 23 tasi (16,4 %) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida, 16 tasi (11,4 %) qurilishda,6 tasi (4,3 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 4 tasi (2,9 %) tashish va saqlashda,3 tasi (2,1 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1 tasi (0,7%) axborot va aloqa, hamda 4 tasi (2,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2020 yilning 1 yanvar holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Jami	**140**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	59	42,1
Savdo	24	17,1
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi	23	16,4
Qurilish	16	11,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6	4,3
Tashish va saqlash	4	2,9
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3	2,1
Axborot va aloqa	1	0,7
Boshka turlari	4	2,9

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 69 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko‘paygan.

Bunda, Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 22 ta, Rossiya Federatsiyasi – 16 ta, Turkiya -10 ta, Xitoy-5 ta, Eron Islom Respublikasi -5 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 11 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

69 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch shahri (20 ta), Urganch (11 ta),Xiva (8 ta), Xiva shaxri (7 ta), Yangibozor (5 ta), Xonqa (5 ta) ,Gurlan (4 ta) , Shovot (3 ta), Xazorasp (3 ta), Qo‘shko‘pir (1 ta), Bog‘ot (1 ta), Yangiariq (1 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**69**	**100,0**
Urganch sh.	20	29,0
Xiva sh.	7	10,1
tumanlar:		
Bog‘ot	1	1,4
Gurlan	4	5,8
Qo‘shko‘pir	1	1,4
Urganch	11	15,9
Xazorasp	3	4,3
Xonqa	5	7,2
Xiva	8	11,6
Shovot	3	4,3
Yangiariq	1	1,4
Yangibozor	5	7,2

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 23 ta,qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 16 ta,qurilishda 11 ta, savdoda 8 ta va 11 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, *birlikda*



Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmlarini kengaytirishda etarli darajada ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli, ayrim hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda barqarorlik saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2020 yil 1 yanvar holatiga 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar ro‘yxatida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan 327-sonli “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirgandan boshlab, Respublikamizda oilaviy korxonalar faoliyatini tashkil etishda, korxona huquqini muhofaza qilishda va faoliyatini yuritishda sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Buning natijasida, oilaviy korxonalar soni ko‘payib mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishida ijobiy ulushiga ega bo‘lib bormoqda.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni - 2020 yil 1 yanvar holatiga 2574 tani tashkil etib, ulardan 2464 tasi yoki 95,7 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar soninig o‘sish dinamikasi,
birlikda